



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

NAMANGAN VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2022- YIL YANVAR-SENTABR (DASTLABKI MA'LUMOT)



Tel.: 69-211-72-00




www.namstat.uz


2022- yil yanvar-sentabr oylarida



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida Namangan viloyati korxonalari tomonidan 12 712,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 109,1 % ni tashkil etdi.




Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 80,1 % ni tashkil etdi.



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoati 147,6 % ga o'sishi hisoblanadi.


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 64,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini tashkil etdi.




2022- yil yanvar-sentabr oylarida



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10 188,2 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 80,1 % ini tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,2 % ni (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida – 1,7 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 8,8 % (5,4 %), o'rta-quyi texnologiyali – 14,5 % (12,6 %) va quyi texnologiyalisi – 77,4 % (78,4 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 26,1 % (2021-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 93,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 17,1 % (2021-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,8 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 2,7 % (2021-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 168,6 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 0,9 % (2021-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 74,8 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 1,7 % (2021-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,6 %) ni tashkil etdi


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korhonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmlari






2022-yilning yanvar-sentabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 88,9 ming tonna bug'doy uni ishlab chiqarilgan bo'lib, (2021-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 5,6 % ga kamaygan), 14,7 ming tonna paxta tolasi (25,4 % kamaygan), 9,1 ming. tonna yog' mahsulotlari (5,8 % ga ortgan) hamda 23,8 ming tonna paxta chigiti (23,8 %ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish




Metallurgiya sanoati

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 1,1 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 108,0 % ga oshgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,2 % ga pasayib, fizik hajm indeksi esa, 10,2 % ga pasaydi va ishlab chiqarish hajmi 116,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 648,8 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 6,6 % ni tashkil etgan, 2022-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 447,1 mlrd so'mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 3,5 % ni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 1 746,0 mlrd so'mni, joriy 2022-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 2 180,1 mlrd so'mni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan jami oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 434,1 mlrd so'mga ortgan.




Ichimliklar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 492,5 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa 2022-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 433,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 58,6 mlrd. so'mga kamaygan va jami ishlab chiqaradigan sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 3,4 %ni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish




2021-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 119,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 93,9 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 3 320,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish


2021-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ulushi 10,4 % ni, yani jami 1 031,4 mlrd so'mni tashkil etgan, 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 9,7 % ni tashkil etib 1 232,5 mlrd. so'mga tengdir. Namangan viloyatida kiyim ishlab chiqarish o'tgan 2021-yilning mos davriga nisbatan 201,1 mlrd. so'mga oshgan.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 143,3 mlrd. so'mni, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 %ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida Namangan viloyati bo'yicha 469,3 mlrd. so'mlik kimyo mahsulotlari ishlab chiqarilib, jami sanoatdagi ulushi 3,7 % ni, tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 7,7 mlrd. so'mni tashkil etib jami ishlab chiqariladigan sanoatining 0,1 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 1,8 mlrd. so'mga ko'payib, 9,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar sanoatdagi ulushi 1,8 % ni, yani 179,8 mlrd. so'mni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilga nisbatan 29,9 mlrd. so'mga ko'paygan va 209,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2022-yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 339,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 18,4 % ini) tashkil etadi.

2022-yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 926,8 mlrd so'mga ko'payganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-sentabr	2022- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	4 914,7	4 769,2	-145,5
Issqlik energiyasi, ming gkal	49,9	58,5	8,6

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 121,5 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 %ini) tashkil



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish




O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 11,2 mlrd. so'm yoki 18,7 % ga ortganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'rnalarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 1,7 mlrd. so'mga kamaygan.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish


Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 7 224,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021-yilning mos davriga nisbatan o'sish 119,8 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 56,8 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari




Nooziq-ovqat mahsulotlar

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib 40,5 % ni, shuningdek, Chust tumani 11,2 % ni, To'raqo'rg'on tumani 9,1 % ni, Namangan tumani 8,2 % ni Kosonsoy tumani 7,8 % ni, tashkil etdi.



Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 2 922,8 mlrd. so'mni yoki jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 40,5 %, Chust tumanida 810,2 mlrd. so'm bo'lib, 11,2% ni shuningdek, To'raqo'rg'on tumanida 656,3 mlrd so'mni jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 9,1 %ni tashkil etdi.



o'sish sur'ati
mlrd. so'm


Namangan viloyati

5 519,6 mlrd. so'm

2021- yil yanvar-sentabr





7 224,4 mlrd/ so'm

2022- yil yanvar-sentabr



Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining Namangan viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 38,4% shuningdek, Chust tumani 14,9 %, To'raqo'rg'on tumani 12,3 % ni tashkil etadi.



o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Namangan viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib 45,4 % ni, shuningdek, Namangan tumani 10,3% ni, Uchqo'rg'on tumani esa 9,5 % ni tashkil etdi.



Namangan viloyati

1 978,7 mlrd. so'm

2021- yil yanvar-sentabr

2 281,2 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-sentabr






o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Namangan viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 37,0 %ni, shuningdek, To'raqo'rg'on tumani 19,6 %ni, Chust tumani 8,7 %ni, Namangan tumani 6,0 % tashkil etdi.


Namangan viloyati



o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga To'raqo'rg'on tumani (10 544,6 ming so'm), Namangan shahrida (7 060,4 ming so'm), Namangan shahrida (7 060,4 ming so'm), tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligini ko'rsatmoqda.



o'sish sur'ati
ming. so'm

Namangan viloyati

2021- yil

3 420,1 ming. so'm

2022- yil

4 301,9 ming. so'm



2021- yil

112,4 %




2022- yil

106,8 %

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5 675,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 44,6 % ni tashkil etdi.


Namangan viloyati





 *jamidagi ulushi*
 *mlrd. soʻm*

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Namangan viloyati bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 2 444,7 ming so'm bo'lgani holda, Namangan shahrida – 4 379,3 ming so'mni, Chust tumanida 2 931,5 ming so'mni, To'raqo'rg'on tumanida 2 784,2 so'mni tashkil etdi.



o'sish sur'ati
ming. so'm



Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 7 697 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2 932 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 38,1 % i) Namangan shahriga, 590 tasi (7,7 %) Kosonsoy tumaniga, 565 tasi (7,3 %) Uychi tumaniga, 551 tasi (7,2 %) Namangan tumaniga, 544 tasi (7,1 %) Chust tumaniga, 480 tasi (6,2 %) To'raqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Jami yangi tashkil etilgan

1 360 dona

2021- yil yanvar-sentabr

1 122 dona

2022- yil yanvar-sentabr




Jami faoliyat yuritayotgan

7 467 dona

2021- yil yanvar-sentabr

7 697 dona

2022- yil yanvar-sentabr



Yangi tashkil etilgan
Faoliyat yuritayotgan

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 139 ta loyiha bo'yicha 853,8 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 9,7 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.



Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida 1 142 ta yangi ish o'rinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 1,7 marta ko'payganligi kuzatildi.